

SIFAT MENEJMENTI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Valiyeva Shoxsanam Saidovna

*“Metrologiya, texnik jihatdan artibga solish,
standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrası magistaranti
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
O'zbekiston Respublikasi , Toshkent shahri
Tel: 94 546 12 99*

Usmanova Xulkar Asadullayevna

*“Metrologiya, texnik jihatdan artibga solish,
standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrası dotsenti,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
O'zbekiston Respublikasi , Toshkent shahri*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sifat menejmenti haqida umumiy ma'lumotlar, korxonalarida, ta'skilotlarda sifat menejment tizimini yanada takomillashtirish, sifat menejmentini xalqaro darajaga ko'tarish chora tadbirlari haqida gap ketadi. Va quyida bitta mahsulot namunasida yanada chuqurroq ko'rib chiqiladi. Bu mahsulot qandolat mahsuloti hisoblanib, unda yanada kengroq fikrlar yuritiladi.

В данной статье представлены общие сведения об менеджменте качества, мерах по дальнейшему совершенствованию системы менеджмента качества на предприятиях и организациях, поднятию менеджмента качества на международный уровень. Этот продукт считается кондитерским изделием, и в нем учитываются более обширные соображения.

This article provides general information about quality management, measures to further improve the quality management system in enterprises and organizations, and raise quality management to an international level. This product is considered to be a confectionery product, and more extensive considerations are made in it.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, qandolat mahsulotlari, standart.

INTRODUCTION

Sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida yurtimizda bugungi kun talab qilayotgan standartlarni joriy etishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamizda sifat menejmenti tizimlari sertifikatlashtirgan korxonalarining soni 260 ga yaqinlashdi. Boshqacha aytganda, keyingi besh yil ichida sifat tizimini joriy qilgan korxonalar soni 2,3 baravar ko'paydi. Sifat tizimi sertifikatlashtirilgan korxonalarining aksariyati asosan mashinasozlik, neft va gaz tarmoqlariga to'g'ri keladi. Bu borada Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand

viloyatlari korxonalarini yetakchi o'zida. E'tiborlisi, O'zbekistonda sertifikatlashtirilgan korxonalar sonining o'zgarishi ko'plab davlatlar bilan solishtirganda eng yuqori o'sish sur'atiga ega. Sifat tizimini ishlab chiqish, joriy qilish, sertifikatlashtirish, shuningdek, mutaxassislarini bevosita joylarda o'qitishni tashkil etish maqsadida milliy ekspert-auditorlar tayyorlanmoqda. Hozirgacha ularning 32 nafari Davlat reyestriga kiritildi. Ularning aksariyati xorijda ham tan olinadigan xalqaro darajadagi ekspertlar hisoblanadi. Sifat tizimlariga sertifikat berishni takomillashtirish maqsadida 19 idora Milliy tizimda ro'yxatdan o'tgan. O'zaro bog'liq jarayonlar tushunish va boshqarish, belgilangan natijalarga erishishda tashkilotning natijaviyligi va samaradorligiga tizimlar kabi yordam beradi. Ushbu yondashuv tashkilotga tizim jarayonlari orasidagi o'zaro aloqalar va o'zaro bog'liqliklarni boshqarishga imkon beradi, shu sababli tashkilot faoliyatining umumiy natijalari yaxshilanishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sifat menejmenti tizimini qo'llash tashkilot uchun uning faoliyati natijalarini yaxshilashga yordam bera oladigan va barqaror rivojlanishga mo'ljallangan tashabbuslar uchun mustahkam asosni ta'minlay oladigan strategik qaror hisoblanadi. Jahon global iqtisodiyotini zamonaviy sharoitlarida, bozorda faqat bozor talab qilgan, bozorda qiymatga ega mahsulotni etkazib beruvchi korxonalariga muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Zamonaviy iqtisodiy holat korxonalar rahbarlarini e'tiborni alohida ishchilar samaradorligiga emas, balki korxonani boshqarishga tizimli yondoshishga qaratishga undamoqda, bunda korxonaga, iste'molchilar talablariga, shuningdek atrof – muhitni muhofazasi talablariga muvofiq bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishga olib keladigan ko'p jarayonlarni uyg'unlashgan o'zaro aloqasi sifatida qaramoqdalar. Sifat – bu mahsulot yoki xizmatlarni, ularga talablarni, belgilangan yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish xususiyatini beradigan xususiyat va tavsiflari yig'indisi

Davlatni rivojlanganligini rad qilib bo'lmaydigan ko'rsatkichlaridan biri bo'lib uning hududida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati hisoblanadi.

Sifat tushunchasini bir nechta ta'rifi mavjuddir: sifat – bu iste'molchi ehtiyojlarini qondirilishi; sifat – bu yuqori malakali xodimlar va yuqori texnologik qurilmalar yordamida erishiladigan unumdorlik.

O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi qonuniga ko'ra:

oziq-ovqat mahsulotining sifati — oziq-ovqat mahsulotining iste'mol xossalari belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligini ta'minlaydigan mezonlar majmui;

oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi — oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalari va qoidalariga mosligi deb ta'rif berilgan. 1960

yilning oxirlarida ko‘plab mamlakatlarning olimlari va mutaxassislari faqat tayyor mahsulotni nazorat qilish yo‘li bilan sifatni kafolatlash mumkin emasligiga xulosaga kelishdilar. Sifat anchagina oldin, bozor talablarini o‘rganish, ishlanmani loyihalash bosqichida, xom-ashyo, materiallar va butlovchi buyumlar ta‘minotchilarini tanlashda va albatta, mahsulotni realizasiya qilishda, uni iste‘molchi ekspluatasiya jarayonida texnik xizmat ko‘rsatish jarayonida va foydalanishdan so‘ng utillashtirishda ta‘minlanishi lozim. Bunday kompleks yondashuv berk jarayonni yaratishni ta‘minlaydi ya‘ni u o‘ziga bozorda ehtiyojlarni aniqlashdan boshlab ishlab chiqarilayotgan yoki ishlanayotgan mahsulotni takomillashtirish, ishlab chiqarishni tayyorlash, tayyorlash, realizasiya qilish va sotishdan so‘ngi xizmat ko‘rsatish asosidagi samarali “aks aloqa” tizimi va sifatni ta‘minlashga minimal xarajatlarda, bozor konyunkturasini hisobga oluvchi rejalashtirish fazalarini qamrab oladi. Iste‘molchiga mahsulotning yuqori sifati turg‘unligini kafolatini va uni standartlar va kontraktlar talablariga muvofiqligini taminlash uchun zaruriy tashkiliy va texnikaviy chora-tadbirlar yig‘indisi sifat tizimi deb nomlanadi.

Sifat xalqasiga quyidagi faoliyat turlari kiradi:

- marketing, bozorni o‘rganish;
- loyihalashtirish va mahsulotni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tayyorlash;
- moddiy-texnikaviy ta‘minot;
- ishlab chiqarish;
- kuzatuv va sinovlarni o‘tkazish, nazorat;
- qadoqlash va saqlash;
- tarqatish va realizasiya qilish;
- montaj va ekspluatasiya;
- texnikaviy yordam va xizmat ko‘rsatish;
- sotuvdan so‘ngi faoliyat;
- foydalanib bo‘lgandan so‘ng utillashtirish.

Sifat tizimi mahsulot sifatiga ta‘sir qiluvchi barcha turdagi faoliyatlar bilan chambarchas o‘zaro faoliyatdagi sifatni boshqarish tizimi ishchi holatda bo‘lgan sharoitlarda hamda quyidagi talablarga muvofiq bo‘lsagina samarali bo‘lishi mumkin:

- “sifat xalqasi”ning barcha bosqichlarida sifatni boshqarishni ta‘minlaydi;
- korxonaning barcha ishchilari sifatni boshqarishda ishtirok etishini ta‘minlaydi;
- rahbariyatning javobgarligini o‘rnatiladi;
- xarajatlarni kamaytirish faoliyati bilan sifat bo‘yicha faoliyatni uzluksizligini ta‘minlaydi;
- nomuvofiqliklar va nuqsonlarni oldini olish bo‘yicha profilaktika tekshiruvlarini o‘tkazishni ta‘minlaydi;
- nuqsonlarni aniqlash majburiyati va iste‘molchiga hamda ishlab chiqarishda


ularni ruxsat etmaslik to'siqlarini ta'minlaydi;

-davriy tekshiruv o'tkazish, tahlil qilish va tizimni takomillashtirish tartibini o'rnatadi;

-tizimning barcha jarayonlari va tartiblarini hujjatli rasmiylashtirish tartibini

“Tizimli yondashish” tamoyili olib tashlangan. “Taminotchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar” tamoyili esa “Qiziquvchi tomonlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish” tamoyiligacha kengaytirilgan tarzda keltirilgan.

“Peshqadamlik”ga bag'ishlangan beshinchi bo'lim to'laligicha yangi bo'limdir. Yuqori rahbariyatning sifat bo'yicha ishlariga vakil bo'livchi xodim ya'ni “Rahbariyatning sifat bo'yicha vakili” tushunchasi olib tashlangan. Endi barcha yuqori rahbariyat sifat menejmenti tizimi tarafdoiri bo'lishi lozim. Rahbariyatning peshqadamligi sifat sohasidagi siyosat va maqsadlar, strategiyani yaratish va joriy qilish hamda ulani xodimlargacha etkazish, sifat menejmenti tizimini joriy qilish va ishchi holatini ta'minlash, ko'rsatkichlar va dalillarga asoslanib karor qabul qilishda namoyon bo'ladi.



1.5-rasm. ISO 9001:2015 ning yangi modeli

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sifat menejmentini yanada takomillashtirish, davlatimizdagi ko'plab korxonalarini shu standart darajasiga oshirish va mamlakatning iqtisodiyotiga ulkan hissa qo'shishga qaratildi. O'rganishlardan shunday fikr yuritish mumkinki, har qanday qilingan ishlarning barchasi insonning ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishi kerak. Yuqoridagi standart sifat menejmenti standarti hisoblanib,

sifatni yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismatullaev P.R., Matyakubova P.M., Turaev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. T.: Lesson-Press, 2015. – 423 b.
2. Lex.uz (Standartlashtirish qonuni.O'zbekiston Respublikasining Qonuni 03.11.2022 yildagi O'RQ- 800-son)
3. Isayev R.I.Karimova U.N Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish Darslik "Aloqachi-2017"., 189 -bet
4. A.A.Abduvaliyev Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish Darslik "Sharq" nashriyoti Toshkent-2018 231- bet
5. I.Kh Siddiqov,Kh.A Sattarov ,O.I.Siddiqov Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish Toshkent-2018,. 120 bet